



maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

maktabgacha
va maktab ta'limi
tasarrufidagi
ta'limiy o'rta
ta'lim maktabi
boshlang'ich ta'lim metodbirlashma

HUQUQATLARI

(2022-2027- o'quv yili uchun)






“Aziz ustozlar,
maktab ta’limi shahridagi
islohotlarning amalga
oshirishida sizlarni
o‘zingim eng yaqin
yordamchim, deb bilaman.”

Shavkat Mirziyoyev



BOSHLANG'ICH TA'LIM



Boshlang'ich ta'lim metodbirlashmasi hujjati quyidagilardan iborat:

- ⇒ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug'i
- ⇒ Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tartibi
- ⇒ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi Umumiy o'rta ta'lim maktabining Metodbirlashmalari to'g'risidagi nizomi
- ⇒ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risidagi buyrug'i
- ⇒ Yillik ish reja
- ⇒ Metodbirlashmasi a'zolari haqida ma'lumot
- ⇒ Metodbirlashmasi a'zolarining ish taqsimoti
- ⇒ Metodbirlashma a'zolarining tomonidan o'quv yili davomida o'tiladigan ochiq darslar jadvali
- ⇒ Dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar ro'yxati
- ⇒ Yig'ilish bayonnomasi
- ⇒ Yillik hisobot

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I

**Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini
yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi To‘liq davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarori, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 22-sentabrdagi “Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘i kabi, shuningdek, maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida maktab ta’limi uchun namunaviy darsliklarni hamda baholash tartibini amaliyotga jori etish uchun pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatib borishni ta’minlash maqsadida

buyuraman:

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim maktabining maktabgacha bo‘limlari to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining 3-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi maktablari uchun maktabgacha bo‘limlari uchun 4-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi uchun O‘quv-metodik kengashlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlasin.

2- ilovaga yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari ikki oy muddatda maktabgacha bo‘limlari uchun 3- va 5-ilovalari bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi hamda O‘quv-metodik kengashlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlasin.

3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Pedagogik kengash faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2016-yil 30-maydagi 6-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagogik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq tashkil etilishi inobatga olinsin.

4. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta'lim markazi metodik xizmat ko'rsatish ishlarini mazkur buyrurning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan tartib asosida tashkil etilishini qat'iy nazoratga olishni ta'minlash.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi va Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlariga:

ikki oy muddatda umumta'lim maktablarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish maqsadida tuman (shahar)larda jamoatchilik asosida "Mentorlik" tashkil etish; samarali faoliyat olib borgan mentorlarni tarmoq bo'yicha taqdirlashga tavsiya etish;

metodik xizmat ko'rsatish tartibining mazmuni haqida pedagoglar orasida keng targ'ib qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari ikki oy muddatda Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi xalq ta'limi muassasalarida qo'shimcha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanganlarni o'qitish maqsadida Markazning ichki mehnat tartib-qoidalariga o'zgartirishlar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 372-sonli buyrug'i qabul qilinishini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Axborot xizmati (Xizmat ko'rsatish bo'limi) umumta'lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tartibini ta'minlashini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borishni ta'minlasin.

9. Boshqaruvni nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Vazirlikning
birinchi o'rinboshi**



U.Sharifxodjayev

Toshkent sh.,
2024-yil " 5 "- yanvar,
8 - son

**Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzluksiz
metodik xizmat ko'rsatish
TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv tarbiya sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning salohiyatini oshirish, o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik xizmat ko'rsatish tizimini belgilaydi.

2. Ushbu tartib Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, maktabgacha va maktab ta'limi markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari, maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalariga tatbiq etiladi.

2-bob. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimi tartibi

3. Umumta'lim muassasalariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimi quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining fan metodbirlashma rahbarlari; umumiy o'rta ta'lim maktablarining metodik kengashlari; maktabgacha va maktab ta'limi tuman (shahar)larda "Mentorlar guruhi" metodik asosida;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish shox'balari;

Respublika ta'lim vazirligi;

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha va maktab ta'limi agentligi tasarrufidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy markazi.

4. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimidagi kengash va birlashmalarning faoliyati tegishli asosida amalga oshiriladi.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktabida fan metodbirlashma rahbarlari yo'nalishi bo'yicha davomida quyidagilarni amalga oshiradi:

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

kasbiy seminar, treninglar, mahorat va ochiq darslar tashkil etadi;

manzilli metodik xizmat ko'rsatish ishlarida ("Metodik tur") faol ishtirok etadi;

"Ustoz-shogird" an'anasini tizimli tashkil qiladi;

ilg'or ish tajribalarini maktab, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishga tavsiya qiladi;

fan yo'nalishlari bo'yicha tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi darslik va metodik qo'llanmalar yarmakalarida ishtirok etadi va unga o'qituvchilarni jalb qiladi;

metodbirlashmalararo tajriba almashishni yo'lga qo'yadi;

o'qituvchilarining darslarini kuzatadi hamda ularga zaruriy tavsiyalar beradi;

fanni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilar uchun dars metodikasi mashg'ulotlar tashkil etadi;

fan to'garaklarini tashkil etadi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga joriy etishda ishtirok etadi;

o'quvchilar o'rtasida ularning qiziqishlari doirasida ijodiy, ilmiy, tanlov, o'yin va festivallar tashkil etadi;

o'qituvchilar o'rtasida kasbiy, metodik tanlov va tanlovlarni tashkil etadi;

maktab rahbariyatiga faol, ilg'or o'qituvchilarning takliflari uchun takliflar kiritadi;

ta'lim mazmuni bilan bog'liq materiallar va noqamchi hujjatlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi.

6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarning kasbiy sifati yanada yaxshilash, pedagog xodimlarga o'z xizmatida yordamni tashkil qilish maqsadida **har chorakda kamida bir marta** fan metodik birlashmalari yig'ilishi o'tkaziladi.

7. Pedagoglarni yangi metodik yig'ish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi qo'llanmasidagi metodik ishlarni amalga oshiradi:

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi ushbu vazirlikda O'quv-metodik kengashlar faoliyatini olib boradi;

vazirlik tomonidan pedagog xodimlarning ta'lim mazmuni bilan bog'liq materiallar va noqamchi hujjatlarning mazmun-mohiyatini maktab jamoasiga yetkazadi;

o'quv rejalar va o'qituvchilarning kasbiy takomillashtirish, tajriba-sinovdan o'tkazish hamda amaliyotda metodik yordam berishda pedagoglarga ko'maklashadi;

yaratilgan muvofiqlik o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ekspertizadan o'tkazishni ta'minlaydi;

ilg'or ish tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil etishda Respublika ta'limi bilan hamkorlikda ishlaydi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga samarali joriy etish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablariga metodik yordam ko'rsatadi;

umumiy o'rta ta'lim tizimida metodik yordam ko'rsatishni rivojlantirish, istiqbolli va dolzarb muammolarning tahlili bo'yicha Respublika ta'lim markaziga takliflar kiritadi;

**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2024-yil 5-yanvardagi
8-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA**

**Umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktabi metodbirlashmalarining maqsadi, asosiy vazifalari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Metodbirlashma - bu umumiy o‘rta ta’lim maktablari (keyingi o‘rinli umumta’lim maktablari)da uzluksiz metodik xizmat tizimini ta’minlash uchun hisoblanib, o‘qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshirish uchun ularning innovatsiya, tajriba-sinov ishlari va ta’lim-tarbiya jarayonlarini olib borish ishlari muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi.
3. Metodbirlashma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qayasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qayasi qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek umumta’lim maktabining ustavi va ushbu nizomga amal qiladi.
4. Mazkur nizom talablari barcha umumiy o‘rta ta’lim maktabi nisbatan tatbiq etiladi.

2-bob. Metodbirlashmalarining maqsadi va asosiy vazifalari

5. Metodbirlashmaning maqsadi o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fan o‘qituvchilariga metodik xizmatni ta’minlash, tegishli o‘quv fanlarni o‘qitish uslublarini oshirish va o‘qitish sifatini oshirishga ko‘maklashadi.
6. Metodbirlashmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
 - Pedagoglarni yangi metodik talablarga moslashtirish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘linmasi yoki filialini yo‘lga qo‘yadi;
 - kasbiy seminarlar, o‘quv kurslari, ta’limiy, mahorat va ochiq darslari tashkil etadi;
 - “Metodik-turkumlar”da faoliyat olib boradi;
 - “Ustoz-shogird” anjumanlari tashkil qiladi;
 - ilg‘or ish tajribasini maktab, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishga tavsiya qiladi;
 - fan va metodika tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi “Metodik yulduz”larda ishtirok etadi, o‘tkazadi va unga o‘qituvchilarni jalb qiladi;
 - metodik birlashmalararo tajriba almashishni yo‘lga qo‘yadi;

o'qituvchilarning darslarini kuzatish hamda metodbirlashmada zaruriy tavsiyalar berib borilishini tashkil etadi;

fanni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchilar uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etadi;

fan to'garaklarini tashkil etadi;

mezonlarga asoslangan baholashni amaliyotga joriy etilishida ko'maklashadi;

o'quvchilar o'rtasida ularning qiziqishlari doirasida ijodiy, intellektual tanlov, o'yin va festivallar tashkil etadi;

o'qituvchilar o'rtasida kasbiy, metodik tanlov va ijodiy dekadalar tashkil etadi;

umumta'lim maktabi rahbariyatiga o'quv, ma'naviy-ma'rifiy hamda tajriba ishlari faol ishtirok etgan pedagog xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risida taklif kiritadi.

3-bob. Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish

7. Umumta'lim maktabida boshlang'ich ta'lim hamda 5-9 sinflarda alohida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo'lgan fanlar turkumi bo'yicha Metodbirlashmalar faoliyat ko'rsatadi.

8. Umumta'lim maktabida bitta fan turkumi bo'yicha bitta yoki bir necha afar o'qituvchi bo'lsa, Metodbirlashma tashkil etiladi.

Agar tegishli fan bo'yicha o'qituvchilar soni uch yoki undan kam bo'lsa, u holda ushbu fan o'qituvchilari shu turkumdagi fan o'qituvchilari birligida bitta Metodbirlashmaga birlashadi.

9. Metodbirlashma rahbari metodbirlashma faoliyatini birlashtirish holda, maktab direktorining buyrug'i bilan, o'z yo'nalishi bo'yicha o'qituvchi ishlarni yaxshi yo'lga qo'ygan, doimiy ravishda uzluksiz metodik faoliyatni tashkil eta olgan, ijodkor va tajribali o'qituvchilardan tanlov asosida har o'quv yili boshida tayinlanadi.

10. Umumta'lim maktabining barcha o'qituvchilari (o'rindoshlik asosida ishlayotgan o'qituvchilar ham) o'z yo'nalishi bo'yicha tegishli fan turkumi bo'yicha Metodbirlashmaga a'zo bo'lishi shart.

11. Metodbirlashma tarkibi umumta'lim maktabi direktorining buyrug'i bilan shakllantiriladi.

12. Metodbirlashmaning faoliyati umumta'lim maktabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan nazorat qilinadi.

13. Metodbirlashma faoliyati har o'quv yili boshida faoliyat ko'rsatadi. Metodbirlashma ish rejasi metodbirlashma rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va Umumta'lim Metodbirlashma yig'ilishida ko'rib chiqiladi, umumta'lim maktabi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

14. Metodbirlashma yig'ilishi har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

15. Metodbirlashma yig'ilishlariga boshqa Metodbirlashmalarning mavzulari yoki qiziqishlari bo'yicha masalalarni ko'rib chiqilishida o'sha Metodbirlashma taklif etilishi.

16. O'quv yili oxirida Metodbirlashma faoliyatiga oid barcha hujjatlar umumta'lim maktabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tahlil qilinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 1-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida buyuraman:

1. 2024-2025-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun fanlar kesimida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etilsin.

2. Quyidagilar:

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun fanlar kesimida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari tashkil etiladigan kunlar 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish tartibi o'rinlarda – Tartib) 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini joriy etish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi (keyingi o'rinlarda – Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi) tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini joriy etish bo'yicha hududiy va tuman (shahar) ishchi guruhlarining namunalari 4-ilovaga muvofiq;

"Kasbiy rivojlanish kuni" o'qituvchilari o'tkaziladigan tayanch umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etilishi muvofiq;

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari yakunida o'qituvchilarga beriladigan hisobotlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi (S.Radjabov)ga:

bir hafta muddatda har hafta tuman (shahar) ishchi guruhlar bilan hamkorlikda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining mazmun-mohiyatini umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar xodimlari va fan o'qituvchilariga tushuntirishni tashkil qilish;

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining o'quv materiallarini tayyorlash, dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallarini chiqarish uchun Prezident va ixtisoslashgan maktablar

hamda boshqa ta'lim muassasalarining malakali o'qituvchi va mutaxassislaridan iborat ishchi guruhini shakllantirish;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini Tartibga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini ta'minlash;

2024-2025-o'quv yilidan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining birinchi bosqichini aniq (matematika, informatika) va tabiiy (fizika, biologiya, kimyo) fanlar yo'nalishida boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhlariga:

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etishda Tartibda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash;

“Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari o'tkaziladigan tayanch maktablarga yaqin hududdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarini biriktirish va ro'yxatini tasdiqlash;

o'quv yili yakunida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etish doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarni tashkilotlarning yuqori turuvchi ishchi guruh yoki respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari:

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etilishi munosabati bilan dars jadvallarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni 16-sonli SanQvaMga mos kelish choralarini ko'rsin;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etish o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadigan fan o'qituvchilariga bosh joy berilgan umumiy o'rta ta'lim muassasasi direktor jam'asining a'zosi bo'lgan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo'shimcha har oylik to'loqni nazorat qilsin.

6. Axborotxizmati (D.Sobirova) umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijro hujjatlaridagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta'minlasin.

7. Devonxona (H.Raximbayeva) boshqarmasiga ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy va hududiy tashkilotlarida tizim tashkilotlariga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vaziri o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

X.Umarova

Toshkent shahri
2024-yil “ 7 ”
246-s

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun
fanlar kesimida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati"
tadbirlari tashkil etiladigan kunlar**

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun fanlar kesimida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari tashkil etiladigan kunlar quyidagi jadval asosida belgilanadi:

T/r	Kasbiy rivojlanish kunlari	O'quv fanlari
1	Dushanba	Ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq fanlari, tarbiya) o'qituvchilari
2	Seshanba	Filologiya fanlari (ona tili va adabiyoti, rus tili/rus tili) o'qituvchilari
3	Chorshanba	Tabiiy fanlar (fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot fanlari – Science) o'qituvchilari
4	Payshanba	Aniq fanlar (matematika, informatika va kommunikatsiya texnologiyalari) o'qituvchilari
5	Juma	Xorijiy tillar o'qituvchilari
6	Shanba	Amaliy fanlar (tasavvuriy chizmachilik, musiqa madaniyati, sport, jamoaviy tarbiya, chaqiruvga qaratilgan ish, ijodiy yorgarlik) va boshlang'ich o'qituvchilari

Veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68, 91-397-77-37, 90-530-68-66 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

66 listdan iborat Rus tili metodbirlashma hujjatlarini to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.


Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: HUMO

9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

ONLINE KOMPYUTER XIZMARLARI

O'zbek va rus maktablar uchun

Buyutirma asosida

1-11-sinflar uchun barcha fanlardan **testlar**, **nazorat ishlari**, **to'garaklar**, **tezislar** va **yillik fan konspektlar**, **tadbir senariylari**, **ochiq dars ishlanma** va **slaydlar** (taqdimotlar), mikro darslar, talabalarning amaliyot hujjatlari, kurs ishi, loyha ishi, **ko'rgazma va tarqatmalar**, **faxriy yorliq**, **diplom**, **tashakkurnomalar** va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.

Tel:91669-34-74 Telegramdan: @talimxizmatlar izlab toping.

1–11 классов подготавливаем:

тесты по всем предметам

контрольные работы

кружковые занятия

тезисы

годовые конспекты по предметам

сценарии мероприятий

разработки открытых уроков

слайды и презентации

микроуроки

документы по практике студентов

курсовые работы

проектные работы

наглядные и раздаточные материалы

почётные грамоты

дипломы

благодарственные письма

другие документы

Телефон: 91 669-34-74

Ищите нас в Telegram: @talimxizmatlar